

TIL O'RGANISHDAGI MUAMMO VA KAMCHILIKLAR

Tojiboyeva Mahbuba Rahimova.

Ilmiy rahbar, Filologiya fanlar nomzodi dotsent.

Nazirova Mubina Mo'minjon qizi

QDPI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2 – kurs talabasi.

Yoqubova Ozoda Muhsinjon qizi

QDPI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi.

Esonova Odina No'monjon qizi

QDPI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi.

Annotatsiya

Bugungi glaballashuv jarayonida tilga bo'lgan ehtiyojlar ortib bormoqda. Har bir inson o'z kasbi doirasida biror biror bir til va bilimlarni egallashliklariga to'g'ri kelmoqda. Bu esa raqobat oshishiga, raqobat oshgabi sari rivojlanish ilg'or tarzda borayotganidan darakdir. Tilga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib borar ekan til o'rganishda insonlarning duch kelayotgan muammolari xato va kamchiliklari ham orta boradi. Mazkur maqolada til o'rganishdagi ba'zi kamchilika va xatolarni, ularga bo'lgan yechimlarni yoritib o'tamiz.

Annotation

In today's process of globalization, the needs for language are increasing. Everyone has to acquire some language and knowledge within the framework of their profession. This is a sign of increased competition and progressive development. As the need for language increases day by day, the problems and mistakes people face in language learning also increase. In this article, we will highlight some shortcomings and mistakes in language learning, as well as their solutions.

Аннотация

В современном процессе глобализации потребности в языке возрастают. Каждый должен приобретать язык и знания в рамках своей профессии. Это признак усиления конкуренции и прогрессивного развития. Поскольку потребность в языке растет с каждым днем, проблемы и ошибки, с которыми люди сталкиваются при изучении языка, также увеличиваются. В этой статье

мы выделим некоторые недостатки и ошибки в изучении языка, а также пути их решения.

Kalit so'zlar: metod, o'rganish uslublari, tamoyillar, self study, so'z etimologiyasi, struktura.

Key words: method, learning styles, principles, self study, word etymology, structure.

Ключевые слова: метод, стили обучения, принципы, самостоятельное обучение, этимология слов, структура.

Kirish

Albatta, inson biror bir til o'rganish xohlaydi va ilm yo'lida ko'plab mashaqqatlar chekishiga, xatolar qilishi, va shu xatolardan to'g'ri hulosaga kelishi kerak bo'ladi. Biror bir til o'rganishdan inson avval o'ziga maqsad qo'yadi nima sababdan chet tilini o'rganishi kerakligi, qay yo'l bilan o'rganishi kerakligi? Qanday qiyinchiliklarni boshdan o'tkazishi? Qaysi usul yoki metod orqali o'rganishi kerakligini aniq belgilab olishi zarur. Ushbu maqola aynan shu savollarni to'laqonli yechimi sifatida berildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Hozirgi kunda insonlar har bir qilib turgan ishlaridan bir manfaat ko'zlaydilar. Biror bir chet tilini o'rganishda ham asosi ko'p insonlarda uni ortidan mo'may pul ishlash, yoki biror bir imtixon, test va sertifikatlardan o'tib, oliy ta'lim muassasalariga kirishgina bo'ladi halos. Afsuski, bunday maqsad bilan til o'rganishni boshlash katta xato bo'ladi, bir ilm o'rganyapsizmi undan nafaqat siz balki yon atrofingizdagilarga ham o'rgatish maqsadigina bo'lishi kerak.

Abu Bakr r.a da bir hadis bor. U kishi o'qigin, o'rganigin, o'qigan va o'rganganlaringni eng yaxshisini yozib olgin va yodlagin, yodlaganingni birovlariga aytib bergin yani o'rgatgin deganlar.

Mutlaq haq fikr biror bir bilim o'zingizda doimiy hotiraga joylanishi uchun ularni birovga so'zlab berishingiz, o'rgatishingiz kerak. Fransiyalik mutahasislarni ta'kidlashlaricha bir tilni o'rganishni boshlagan inson birinchi 100 soat ichida uni katta qiziqish va e'tibor bilan o'rganadi so'ng esa ma'um sabablarga ko'ra qiziqish so'nib boradi. Bunga sabab yon atrofingizdagi insonlarning gap so'zlari, erisha



olmay turgan yutuqlar va befoyda harkatlar ham bo'lishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun albatta insondan katta qat'iyat, maqsad va harakat talab qilinadi. Eng yaxshi foyda esa ta'kidlaganimizdek boshqa birovlariga o'rgatish. Seneykaning bir kitob bor u shunday nomlanadi **“O'rgatish asosida o'rganaman”**. Xech qanday pul mablag'isiz va manfaatlarsiz insonlarga o'zingizda bo'lgan bilimni o'rgating va o'rgatish asosida o'zingiz ham o'rganing.

Muhokama

Muammo va kamchiliklar.

1. Ko'p insonlarda uchrab turadigan kamchiliklar ta'kidlab o'tganimizdak avvalo niyat va to'g'ri qo'yilgan maqsad bu borada yuqorida so'z olib bordik.
2. Cheklangan chegaralangan o'quv muhiti. Bundan biz yaxshi o'quv xona, parta va shunga o'xshash jihozlarni ko'zda tutayotganimiz yoq aksincha, insonga til o'rganishda kerak bo'ladigan materiyallar, pod castlar, gadjed qurilmalar kerak. Hozirgi rivojlanayotgan davrda bularsiz til o'rganish juda qiyin bo'lib qolgan. Internet, ijtimoiy tarmoqlardan o'zingizga kerakli tushunmagan mavzularda video darsliklarni ko'rib ham o'rganish va izlanish mumkin.
3. Jiddiy yondashmaslik. Insondagi nafs illatini yo'qotish va self studyga etiborni qaratish doimiy uy vazifalarni odat shakliga aylantirish kerak. Odamlarda aynan shu ta'limga jiddiy qarmaslik befarqlik ko'p uchrab turadi. Dangasalik illatiga chalingan inson albatta til o'rganish bo'lsin boshqa ilmlarni o'rganish bo'lsin biror muvaffaqiyatga erish olishlari dargumon. Bu kasallikni davolash va chalinmaslik uchun davo choralarini ko'rish darkor. Tilni jiddiy o'rganish uni kelajakda puxta bilish va qiyinchiliksiz muloqot qilishga yordam beradi
4. Uyalchanlik. Insoni ayniqsa shu tifo'dagi insonlardagi kamchilik muammo gapirishga o'rganatrgan tilida muloqot qilishga uyaladi. Bu borada biz bolalardan o'rganishimiz zarur ular hech narsadan uyalib tortinib o'tirishmaydi bilganlarini bayon qilishadi.

Bartaraf etish va tez osson til o'rganish metodikasi.

Muammolarni yechishda sizlarga albatta iroda va oldingizga qo'ygan maqsadda bardavom harakat qilish lozim bo'ladi. Chet tillarini o'rganishni o'zingiz yoqtirgan mashg'ulotdan boshlang. Masalan kimdir video o'yin o'ynashni yoqtiradi til bo'yicha o'yinlar o'ynab ushbu tilda bermalol muloqat qilish darajasiga yetgan insonlarni ko'p uchratganimiz albatta. Yana kimdir taom pishirishni yoqtirar taom retseplari va tayyorlanish uslublarini o'rganib turgan tilingizda ko'ringa. Yana bir

samarlai usullardan biri kino orqali o'rganish. 5 daqiqali epizod qo'ying uni subtilil bilan ko'ring, notanish so'zlarni yozib olib, so'ng qaytaring shu epizodni yana boshqattan subtitilsiz ko'ring va takrorlang endi siz uni xech qanday qiyinchiliksiz tushuna boshlaysiz. Boshqa eng oddiy metodlardan biri o'z mobile qurilmangizni o'zingiz o'rganib turgan tilga o'zgartirib oling inson eng ko'p qaraydigan narsasi bu o'z shaxsiy mobile qurulmasi bo'ladi. Tez o'rganishda yana bir yordam beradigan narsa bu yaxshi suhbatdosh. Yaqin do'stingiz ham siz o'rganib turgan tilni o'rgansa nur ustiga a'lo nur birga o'rganilayotgan til asosida maroqli suhbat darsdan tashqari birga self stadiy qilishingiz mumkin. Eski metidlardan yana biri sanoq usuli hissoblanadi qancha ko'p sanoq qilsangiz yaxshi va samarali esingizda qoladi va doimiy xotiraga o'tadi. Ma'lum tilni o'rganishda albatta insonga metin iroda va sabr toqat doimiy takror kerakligini unutmaslik kerak.

Rus tilini o'rganishda yakka so'zlardan emas so'z birikmalaridan foydalaning. [5. 8] Grammatik qoidalarini yodlashda mukkangizdan ketmang. Ko'zlaringiz bilan emas quloqlaringiz bilan o'rganing. Chuqur o'rganishga harakat qiling, sodda qisqa ommabob hikoylar o'qing, tinglang. To'g'ri talaffuzga harakat qiling[5. 9...20] Darhaqiqat bu qoidalarga amal qilib nafaqat rus balki boshqa tillarni ham o'rganishda qoida qilib olinsa bo'ladi.

Til o'rganishda so'zga uning etimologik, leksik ma'nolarini chuqur tushunib yodlasak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sxema yoki uy jihozlaringizga uning nomini yozib stiker bilan yopishtirilsa doimiy ko'z hotiraga joylanadi. [7. 121...123] Albatta bu ham sizning so'z yodlash qobilyatingizni oshiradi va o'rganishingizni samarasini oshirdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki xorijiy tilni o'rganish jarayonida xarolarga yo'l qo'ymaslik va muammolarni bartaraf etish uchun muntazam mehnat va albatta inson o'ziga rag'bat ham bo'lishi zarur. Nafaqat til balki qaysi ilmni o'rganishingizdan qat'iy nazar unga amal qilish orqali o'z bilimingizni mustahkamlab borasiz.

REFERENCES

1. Z.Po'latova «Xorijiy tillarni o'rganishdagi muammolar». Maqola
2. T. Robins «Maqsadga qanday erishiladi» 2013.
3. Zulxumor Jo'rayeva «Inhliz tilini o'rganishda keng tarqalgan xatolar»

4. Сергеева, Э. С. (2020). Образ культурного пространства романов Л.Соловьева «Повесть о Ходже Насреддине» И А. Волоса «ВОЗВРАЩЕНИЕ В ПАНДЖРУД». Экономика и социум, (11), 1283-1286.
6. Сергеева, Э. С. (2020). Приём понимания как один из способов интерпретации художественного текста. Academic research in educational sciences, (4)
5. Alisher Absalamov . Rus tilini o'rganishning samaralari usullari. Yangi avlod nashriyoti Toshkent 2013 [8...15 betlar]
6. Jarasbayev, N. (2021). O'ZBEK FOLKLORSHUNOSIGI, TARIXI VA UNING ADABIYOTDAGI O'RNI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(5), 1325-1331.
7. .Носирова, Т. (2020). АЖДОДЛАР МЕРОСИ-КАМОЛОТ БЕШИГИ. Science and education.

